

HUQUQIY TA'LIM VA UNING O'ZBEKISTON HUDUDIDA SHAKLLANISHI

Jumayeva Feruza Faxriddinovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktorant

Annotatsiya: Mazkur maqolada huquqiy ta'lim tushunchasi, dunyo hamjamiyatida huquqiy ta'limning shakllanishi va rivojlanishi, O'zbekiston hududida huquqiy huquqiy savodxonlikni shakllantirishning ilk ko'rinishlari hamda huquqiy ta'lim, huquqiy tarbiya, huquqiy savodxonlik kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: siyosiy-huquqiy qarashlar, huquqiy ta'lim tizimi, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, axloqiy tarbiya, ijtimoiy munosabatlar, fuqarolik jamiyati, huquqiy me'yorlar, odat huquqi.

ПРАВОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ЕГО ФОРМИРОВАНИЕ НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА

Джумаева Феруза Фахриддиновна,
Базовый докторант Бухарский государственный педагогический институт

Аннотация: В данной статье рассмотрены понятие юридического образования, становление и развитие юридического образования в мировом сообществе, первые проявления формирования правовой правовой грамотности на территории Узбекистана, а также содержание и сущность таких понятий, как юридическое образование, обсуждаются юридическое воспитание, правовая грамотность.

Ключевые слова: политические и правовые взгляды, образовательная система преподавания права, правосознание, правовая культура, правовая грамотность, нравственное воспитание, общественные отношения, гражданское общество, правовые нормы, обычное право.

LEGAL EDUCATION AND ITS FORMATION IN THE TERRITORY OF UZBEKISTAN

Jumayeva Feruza Fakhriddinovna
Basic doctoral student of the Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract: In this article, the concept of legal education, the formation and development of legal education in the world community, the first formation of legal legal literacy in the territory of Uzbekistan, and the content and essence of concepts such as legal education, legal upbringing, legal literacy are discussed.

Key words: political and legal views, legal education system legal awareness, legal culture, legal literacy, moral education, social relations, civil society, public organizations, legal norms, customary law.

Huquqiy ta'lim - mas'ul davlat organlari tomonidan tasdiqlangan ma'lum bir huquqiy tushuncha, bilim va ko'nikmalarni aniq maqsad asosida tizimli, rejali tarzda ta'lim oluvchilarda shakllantirishga qaratilgan faoliyat jarayonidir. Huquqiy ta'lim ta'lim oluvchilarda nafaqat huquqiy savodxonlikni shakllantirish balki huquqiy bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishni ham nazarda tutadi. Shu jihatdan yurtimiz olimasi H. To'ychiyeva o'z dissertatsiyasida huquqiy ta'limga quyidagicha ta'rif beradi "Huquqiy ta'lim - hayotiy-amaliy faoliyatda qo'llaniladigan va egallamishi zarur bo'lgan huquqiy ma'lumot va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli, rejali va muayyan maqsadga yo'naltirilgan nazariy va amaliy faoliyat jarayonidir"[1]. Xo'sh, dunyo hamjamiyatida huquqiy ta'lim qachondan boshlangan? Albatta bu savolning javobi ilk davlatchilik tuzumi boshlangan davrlarga borib taqaladi. Sababi shundaki davlat paydo bo'libdiki uni boshqarish uchun ma'lum bir ijtimoiy-huquqiy normalar paydo bo'lgan, garchi bu asosan "odat huquqi" tarzida namoyon bo'lgan bo'lsada, hamda bu normalar avloddan avlodga o'rgatilib, xalq, aholi munosabatlari shu normalar orqali tartibga solingan. Qadimgi Rimda maxsus ritorika maktablarda o'quvchilarga alohida huquqiy ta'lim berilgan, lekin hali bu jarayon tizimli bo'lmagan. Miloddan avvalgi 3-asrda birinchi plebey pontifex maximus-ruhoniylar amaldorlar boshlig'i Tiberiy Korunkaniy ruhoniylar bo'lmagan o'quvchilarga ommaviy huquqiy yo'riqnomalar berdi va ular jurisprudentes-yuridik maslahatchilar deb ataldi. Jurisprudenslar huquqiy adabiyotlarni o'qish bilan birga ustozlari bilan turli xil huquqiy masalalarni muhokama qilish orqali qonunni o'rganishi mumkin edi. Keyinchalik aynan shu o'quvchilar o'zlarini huquqshunoslar sifatida namoyon etdilar.[2] Shu o'rinda huquqshunos olim Z. Islomovning quyidagi fikrlarini eslatib o'tish joiz "Huquqiy bilim berishni ta'lim muassasalarida maxsus huquqiy fanni o'qitish, shuningdek, maxsus ta'lim uslublarini qo'llash orqali amalga oshirish yaxshi samaralar beradi"[3] Darhaqiqat, yuqoridagi huquqiy ta'lim vujudga kelishi tarixi haqidagi fikrlarimiz ham olimning fikrlarini tasdiqlayapti hamda hozirgi jamiyatimiz uchun ham dolzarbligi bilan ahamiyatlidir.

Qadim sharq ayniqsa Markaziy Osiyo hududi davlatchilik tarixi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Va aynan yurtimiz xalqlari chuqur davlatchilik g'oyaviy-ma'naviy negizlariga asoslangan o'ziga xos siyosiy-huquqiy madaniy boylilik egasidir. O'rta Osiyo xalqlari o'z madaniyati bilan jahon sivilizatsiyasiga butundunyo huquqiy madaniyati rivojlanishiga munosib hissa qo'sha olgan. Milodda avvalgi bir necha yuz yillar oldin

O'zbekiston hududida Katta Xorazm, Parkana, So'g'diyona kabi shahar davlatlar bo'lib, ulardagi huquqiy munosabatlar tartiboti haqida biz uchun asosiy manba "Avesto" kitobidir, eramizning boshlari va milodiy VII asrgacha bo'lgan davr huquqiy munosabatlar tartiboti to'g'risida unchalik ko'p manba mavjud emas, asosan "So'g'd yozma manbalari" hamda "Turkiy xalqlar yodnomalari" asosida bilishimiz mumkin.[4]

O'zbekiston hududida shakllangan siyosiy-huquqiy qarashlar, davlatchilik va huquq tarixi deyarli to'liq o'rganilmagan va bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borish, tarixiy-huquqiy fanlar oldida eng dolzarb muammodir. Chunki mustaqillikka erishgan kunimizdan boshlab shaxdam qadamlar bilan bardavom rivojlanib kelayotgan respublikamiz uchun hozirgi zamon siyosiy-huquqiy institutlari hamda davlatimiz huquqiy tartibot munosabatlari rivojlanishining nazariy asoslarini tushunib yetish mumkin emas. Zero, tarixni bilmay turib, kelajakni qurib bo'lmaydi.

Huquqshunos olim A. Saidov ta'kidlaganidek "Huquqiy demokratik fuqarolik jamiyatida huquqiy savodxonlik axloq darajasidagi mavqega ega bo'ladi. Shunga ko'ra yuksak savodxonlik, ma'naviylik, vatanparvarlik, halollik kabi xislatlarni o'zida mujassamlashtirgan kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor berish zarur.[5] Shuning uchun ham O'zbekistonda mustaqillimizning ilk kunlaridan huquqiy demokratik davlat asoslarini mustahkamlashga doir islohotlar, ayni paytda yurtimizda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni qat'iy olib bordi. Jumladan, 1997- yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi", 2001 yil 4-yanvarda e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil qilish to'g'risidagi" Prezident farmoyishi kabi normativ hujjatlarda aholi huquqiy madaniyat darajasining oshirilishini ta'minlash uchun avvalo huquq-tartibot tizimida ishlaydigan xodimlarning huquqiy malakasini rivojlantirishga, fuqarolarga bevosita huquqiy yordam ko'rsatish tizimini yaxshilash, ta'lim tizimida huquqiy bilimlarni targ'ib qilish uchun maxsus huquqiy fanlarni o'qitish, jumladan yuridik adabiyotlar, darsliklar va qo'llanmalar nashr etish, huquqiy ilmiy tadqiqotlar olib borish ishlarini qo'llab quvvatlash va boshqa masalalar o'z aksini topgan edi. Ammo yillar o'tishi, jamiyatimizdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlarning o'zgarishi, davlatimiz fuqarolarning fikr yuritish darajasining o'zgarishi ushbu milliy dasturni yangilash vazifasini hukumat oldiga ko'ndalang qo'ydi. Bundan tashqari 2017 –yil 7- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Prezident farmoni, 2017-yil 7- sentabrda qabul qilingan "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi qonun, 2018- yil 13- apreldagi "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni, 2019- yil 9- yanvardag " Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident farmoni [6] va boshqa me'yoriy – huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligini ko'rish mumkin.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, yurtimiz hududida huquqiy normalar shakllanishi uzoq tarixga ega bo'lib, ularni naqadar chuqur o'rganib borsak hozirgi davr siyosiy-huquqiy munosabatlarga doir muammolarga javob topgan bo'lar edik. Huquqiy ta'lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish davr talabi hisoblanadi. Shu o'rinda huquqshunos olimlarning quyidagi fikrlarini ta'kidlash o'rinlidir "Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya kampaniya tarzida emas, balki ma'lum maqsadni ko'zlab, rejali va samarali tarzda, turli ijtimoiy guruxlarning xususiyatlarini inobatga olgan holda olib borilishi lozim[7]. Darhaqiqat, huquqiy savodxonlikni axloq darajasiga ko'tarish uchun, avvalo maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida huquqiy tushunchalarni shakllantirish bilan birga vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik kabi axloqiy xususiyatlarni ham shakllantirib borish hayotiy ehtiyojdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

To'ychiyeva Hamida Nabiyevna. Shaxs huquqiy ongini shakllantirishda huquqiy ta'limning o'rni va uning ilmiy-amaliy muammolari. 12.00.01-Davlat va huquq nazariyasi va tarixi. Siyosiy va huquqiy talimotlar tarixi. Yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya-2009-24-b

<https://www.britannica.com/topic/legal-education> (Ko'rilgan sana: 19.09.23y)

Z.M. Islomov. Davlat va huquqning umumnazariy muammolari: huquqni tushunish, huquqiy ong va huquq ijodkorligi / Mas'ul muharrir akademik Sh.Z. Urazayev - T.: TDYI, 2005. 158 b

Davlat va huquq tarixi: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik // H. Odilqoriyev, N. Azizov, X. Madirimov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. -12-30 b

Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. Darslik. 2 tomli. 1-tom/Mas'ul muharrir akademik Sh.Z. Urazayev - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998,- 76 - b.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 342-son qarori. 2019 yil 20 aprel, O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.04.2019 y., 09/19/342/2995-son]

Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 2 tomli. 1-tom / Mas'ul muharrir akademik Sh.Z. O'razayev - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998,- 56-b